

## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Otajonova Ozoda Doniyor qizi**

Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti texnologik ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Elektron manzil: [otajonovaozoda2@gmail.com](mailto:otajonovaozoda2@gmail.com)

***Annotatsiya.** Maqolaning asosiy mazmuni texnologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish, ularning turlari, qo‘llash usullari va zamonaviy texnologiyalarning ta‘lim jarayonidagi o‘rni haqida yoritilgan. Shuningdek, maqolada texnologiya darslarida qanday metod va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerakligi va ulardan namunalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, metod, zamonaviy metodlar, texnologiya, usul, kasb-hunar, malaka, mashg‘ulot, samaradorlik.*

***Abstract:** The main content of the article covers the use of interactive methods in technology classes, their types, methods of application and the role of modern technologies in the educational process. Also, the article provides examples of what methods and modern technologies should be used in technology lessons.*

***Keywords:** pedagogical technologies, interactive methods, method, modern methods, technology, technique, profession, qualification, training, efficiency.*

Hozirda ta‘lim jarayonidagi o‘qitishda zamonaviy metodlardan keng foydalanilmoqda. Bu o‘quvchilarning mukammal, sohasining mutaxassisi bo‘lib yetishishi uchun bog‘liq. Maktab o‘quvchilarida kasb- hunar bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishda texnologiya darslari muhim ahamiyatga ega. Darslarda zamonaviy metodlar va texnologiyalarni qo‘llash texnologiya darslarini o‘qitish jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol metodlar ortiqcha kuch

sarflamay, juda qisqa vaqt ichida ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘li hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishning eng yaxshi yo‘li – mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil qilish hisoblanadi.

Interfaol ta‘lim (inglizcha, “interact”, Ruscha, “interaktiv”, inter-o‘zaro, act-harakat qilmoq)- o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni tashkil etishga asoslanuvchi ta‘limdir.

Interfaollik o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga qaratilgan layoqatga egaliklarini anglatadi. Interfaol ta‘lim o‘qitish jarayoning asosiy ishtirokchilari-o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida vujudga keladigan hamkorlik, baxs-munozaralar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, o‘z qarashlarni ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni hamkorlikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, bir birlari bilan samimiy munosabatda bo‘lishlariga erishishlari bilan ifodalanadi.

Buning uchun dars jarayoni samarali tashkil etilishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishlari orttirilib, ularning ta‘lim jarayonidagi faolligi doimiy ravishda rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materiallarining mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, baxs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi usullarni qo‘llash va o‘quvchilarni mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

O‘quv jarayonining interfaol metodlarga asoslanishi bir qarashda juda oddiy, soda ko‘rinishda degan taassurot uyg‘otadi. Biroq, bunda o‘qituvchining ma‘lum darajada quyidagi omillarga ega bo‘lishi talab etiladi:

- Ish tajribasi
- Metodik malaka
- Tayanch pedagogic-psixologik bilimlar
- Tashkilotchilik qobiliyati

- O‘quvchi va o‘quvchilar guruhining o‘zaro hamkorlikka erisha olishi
- Ta’lim jarayonida demokratik g‘oyalarning ustun turishi

Texnologiya darslarida quyidagi interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Venn diagrammasi- 2 yoki 3 ta muhim jihatlarni va umumiy tomonlarni solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun faoliyatni tashkil etish jarayonida qo‘llaniladi.

Venn diagrammasini tuzish uchun 2 ta kesishuvchi aylana chiziladi. Har bir aylanaga mavzuning alohida bir qismi haqidagi asosiy ma’lumotlar kiritiladi. Aylanalarning kesishuvchi joyida ikki yoki uch aylanalarning mavzulari solishtiriladi va umumiy bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxati yoziladi.

Klaster – axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini mavzulashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ba’zi o‘quvchilar darsda zerikishadi va boshqa ishlar band bo‘lishadi. Interfaol metodlar yordamida o‘qitish qisman bu muammoning yechimi bo‘la oladi deb o‘ylayman. Texnologiya darslarida ushbu interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilar bilimni faollashtirishni tezlashtiradi. Fikrlash jarayonini erki va ochiq ravishda bajarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, kasbiy rivojlanish va kasb tanlash bo‘yicha dunyoqarashni rivojlantiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Karimov.I. “Texnologiya ta’limi metodikasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2022
2. Karimov.I.I , Shomirzayev.M.X. “Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo‘llanma . Toshkent “Universitet” 2020
3. Sharipov.Sh.S, Yakubova.X, To‘rabekov F, Qayumova. N. “Mehnat ta’limi metodikasi” o‘quv qo‘llanma Toshkent -2008
4. Ziyonet.uz
5. Ma’rifat.uz